



MUSTAQIL TURISTLARGA QARATILGAN RAG‘BAT INSTRUMENTLARINING BYUDJET SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODIKASI

Muzaffarov Akmal Axadovich

Buxoro davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistonda mustaqil turistlar oqimini rag‘batlantirishga qaratilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri rag‘bat instrumentlarining byudjet samaradorligini baholash metodikasi taklif etiladi. Mavjud davlat moliyaviy yordami asosan toifalangan yirik joylashtirish vositalariga yo‘naltirilgani sababli mustaqil turistga bevosita xizmat ko‘rsatuvchi mayda provayderlarni chetlab o‘tadi, shu bilan birga ushbu oqim qoldirayotgan sarfning katta qismi norasmiy va naqd kanallarda qolib, fiskal jihatdan ko‘rinmas bo‘ladi. Ushbu ikki muammodan kelib chiqib, tadqiqotda qo‘shilgan qiymat solig‘ini qaytarish, keshbek, subsidiya va soliq imtiyozlari instrumentlarini turist segmentlari bo‘yicha bir so‘m byudjet evaziga olinadigan natija orqali o‘lchaydigan uchta o‘zaro bog‘langan ko‘rsatkich asoslanadi, ya‘ni turist bo‘yicha samaradorlik, sarf bo‘yicha samaradorlik hamda naf va xarajat nisbati. Metodikaning ishlash mantig‘i shartli misol asosida namoyish etilib, marginal samaradorlik tamoyiliga tayangan maqbul byudjet taqsimoti shakllantiriladi. Olingan natijalar mustaqil turizm siyosatida cheklangan davlat mablag‘ini ilmiy asoslangan tarzda taqsimlash imkonini beradi.

Tayanch so‘zlar. Mustaqil turist, rag‘bat instrumenti, byudjet samaradorligi, keshbek, qo‘shilgan qiymat solig‘ini qaytarish, turist segmentatsiyasi, marginal samaradorlik, formalizatsiya, naf va xarajat nisbati.

Kirish

So‘nggi yillarda xalqaro turizm jahon iqtisodiyotidagi beqarorsizliklarga qaramay barqaror o‘sib bormoqda va mamlakatlar bu oqimdan iqtisodiy naf olish yo‘llarini faol izlamoqda, O‘zbekistonda esa turizmni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan bo‘lib, strategik hujjatlarda



xorijiy turistlar sonini sezilarli oshirish, turistik mahsulotni diversifikatsiya qilish hamda mayda va kichik turizm biznesini rasmiy iqtisodiyotga jalb etish vazifalari qo'yilgan. Bu o'sishni ta'minlovchi asosiy va eng tez kengayayotgan qatlamni sayohatini operator vositachiligisiz o'zi rejalashtiradigan va ko'pincha mayda provayderlardan bevosita xizmat sotib oladigan mustaqil turistlar tashkil etadi. Biroq mustaqil turistlar oqimini barqaror oshirish faqat tashkiliy chora-tadbirlar bilan kechmaydi, chunki xizmat ko'rsatuvchini rasmiy maydonga chiqarish va uni raqamli tizimga ulashning o'zi turistni jalb etadigan bevosita moliyaviy turtkini bermaydi. Mustaqil turistning sayohat qarori, mohiyatan, uning kutilayotgan nafi va xarajati o'rtasidagi nisbatga asoslangani uchun oqimni kengaytirishning ikkinchi, moliyaviy-iqtisodiy dastagi turistga va unga xizmat ko'rsatuvchiga beriladigan to'g'ridan-to'g'ri rag'batlardir, ammo har qanday rag'bat davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirilgani uchun uning joriy etilishi avvalo iqtisodiy jihatdan asoslanishi lozim, zero rag'bat tizimi cheklangan davlat mablag'ini past samarali yo'nalishlarga yo'naltirsa, ko'zlangan natijani bermaydi.

Mavjud moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimi tahlili shuni ko'rsatadiki, davlat rag'batlari ko'p hollarda mustaqil turizm ekotizimining eng faol qismini chetlab o'tadi, chunki har bir xona uchun ajratiladigan subsidiyalar hamda qurilish uchun beriladigan uzoq muddatli imtiyozli kreditlar asosan toifalangan, rasman ro'yxatdan o'tgan yirik joylashtirish vositalariga va litsenziyalangan operatorlarga yo'naltirilgan, mustaqil turistga bevosita xizmat qiladigan oilaviy mehmon uylari, xususiy ijara hamda yakka tartibdagi gid va transport provayderlari esa ko'pincha rasmiy maydonda bo'lmagani sababli bu rag'batlardan amalda foydalana olmaydi. Natijada moliyaviy yordam eng ko'p sof qiymat yaratadigan bo'g'inga yetib bormaydi va byudjet mablag'i iqtisodiy qaytimi yuqori segmentga emas, balki an'anaviy infratuzilmaga oqib boradi. Nomutanosiblikning ikkinchi qatlami sarfning o'lchanmasligi bilan bog'liq bo'lib, mustaqil turistlarning real iqtisodiy hissasi yuqori bo'lsa-da, uning sezilarli qismi norasmiy va naqd pulga asoslangan kanallar orqali o'tadi, chunki mayda provayder bilan to'lovlar ko'pincha naqd va og'zaki tarzda amalga oshiriladi, shu sababli mustaqil turist qoldirgan qiymat iqtisodiy



jihatdan real bo'lsa ham, fiskal jihatdan ko'rinmas bo'lib qoladi va rasmiy statistikada, soliq tushumida hamda sifat nazoratida to'liq aks etmaydi. Ushbu ikki muammodan kelib chiqib, maqolaning maqsadi mustaqil turistlarga qaratilgan rag'bat instrumentlarining byudjet samaradorligini baholash metodikasini ishlab chiqish va uning ishlash mantig'ini namoyish etishdan iborat bo'lib, tadqiqotning ilmiy yangiligi aynan shu baholash metodikasida namoyon bo'ladi, zero u standart xarajat-naf tahlilidan farqli o'laroq to'rtta aniq rag'bat instrumentini har bir turist toifasi bo'yicha farqlangan talab javobi va sarfning rasmiy kanalda qamrab olinish darajasi orqali, yagona bir so'm byudjet mezonida o'lchaydi va qiyoslaydi.

Adabiyotlar tahlili

Rag'batning turizm siyosatidagi o'rni va uning talabga ta'siri bir qator xalqaro tadqiqotlarda o'rganilgan. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining turizm siyosati sharhlarida mayda va o'rta turizm subyektlarini maqsadli qo'llab-quvvatlash hamda sohani raqamlashtirish ko'plab davlatlarda ustuvor yo'nalish sifatida qayd etiladi¹, ammo bu manba umumiy siyosat tavsiyalari darajasida qolib, aniq instrumentlarning byudjet samaradorligini o'lchash metodikasini bermaydi. Rag'batning talabga ta'sirini asoslovchi ikkinchi yo'nalish turistik talab egiluvchanligi tadqiqotlaridir, jumladan Peng, Song, Crouch va Witt tomonidan yuzlab empirik natijani umumlashtirgan meta-tahlil turistik talab narx va xarajat o'zgarishlariga sezilarli javob berishini hamda egiluvchanlik turistning kelib chiqishi va sayohat masofasiga qarab farqlanishini ko'rsatadi². Song, Qiu va Park esa turistik talabni modellashtirish va prognozlash usullarini tizimli umumlashtirib, oqim hajmi va sarf darajasini iqtisodiy omillar asosida miqdoriy baholash mumkinligini asoslaydi³, biroq bu ishlar talab javobini rag'bat instrumentining byudjet xarajati bilan bevosita bog'lamaydi.

¹OECD. OECD Tourism Trends and Policies 2024. Paris, OECD Publishing, 2024. 353 b. DOI 10.1787/80885d8b-en.

²Peng B., Song H., Crouch G.I., Witt S.F. A Meta-Analysis of International Tourism Demand Elasticities // Journal of Travel Research. 2015. Vol. 54, No. 5. P. 611 dan 633 gacha. DOI 10.1177/0047287514528283.

³Song H., Qiu R.T.R., Park J. A Review of Research on Tourism Demand Forecasting // Annals of Tourism Research. 2019. Vol. 75. P. 338 dan 362 gacha. DOI 10.1016/j.annals.2018.12.001.



Uchinchi yoʻnalish davlat xarajatining oqlanishini baholashga bagʻishlangan boʻlib, Hendren va Sprung-Keyser davlat choralari bir birlik byudjet xarajatiga toʻgʻri keladigan sof naf mezoni boʻyicha qiyoslab baholash yondashuvini ishlab chiqdi va koʻplab davlat choralari qoʻshimcha soliq tushumi hisobiga oʻz xarajatini qoplashi mumkinligini empirik koʻrsatdi⁴, bevosita turizm sohasida esa Oxford Economics qoʻshilgan qiymat soligʻini qaytarish sxemasini baholab, uning qoʻshimcha turist oqimi va sarfini keltirishini hamda samarasi ayniqsa yuqori sarfli turistlar uchun kuchli boʻlishini asosladi⁵. Toʻrtinchi yoʻnalish sarfni rasmiy iqtisodiyotga tortish, yaʼni formalizatsiya masalasini qamrab oladi, zero Aguilar va hammualliflar raqamli toʻlovning kengayishi norasmiy faoliyatni rasmiy maydonga tortishi va soliq bazasini kengaytirishini empirik tarzda koʻrsatdi⁶, bu esa keshbek kabi raqamli toʻlovga bogʻlangan ragʻbatlarning nafaqat talabni oshirishi, balki sarfni oʻlchanadigan qilishi mumkinligiga asos boʻladi.

Adabiyotlar tahlilidan koʻrinadiki, mavjud tadqiqotlar talab egiluvchanligi, talabni prognozlash, davlat xarajatini baholash va raqamli formalizatsiya masalalarini alohida-alohida chuqur yoritgan boʻlsa-da, ularning hech biri mustaqil turistlarga qaratilgan toʻrtta aniq ragʻbat instrumentini turist segmentlari boʻyicha farqlangan talab javobi va formalizatsiya darajasi orqali, yagona bir soʻm byudjet mezonida oʻlchaydigan va qiyoslaydigan yaxlit metodikani taklif etmaydi. Aynan shu boʻshliq mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilaydi va u byudjet samaradorligini baholash metodikasini ishlab chiqishga qaratilgan.

Tadqiqot materiallari va metodlari

Ragʻbat mexanizmining iqtisodiy mantigʻi ikki tamoyilga tayanadi, yaʼni byudjet mablagʻi iqtisodiy qaytimi eng yuqori boʻlgan turist toifasi va xizmat koʻrsatuvchiga yoʻnaltirilishi hamda har bir ragʻbat uning bir soʻm byudjet evaziga qoʻshgan turisti va sarfi boʻyicha baholanishi kerak, bu esa ragʻbatni shunchaki

⁴Hendren N., Sprung-Keyser B. A Unified Welfare Analysis of Government Policies // The Quarterly Journal of Economics. 2020. Vol. 135, No. 3. P. 1209 dan 1318 gacha. DOI 10.1093/qje/qjaa006.

⁵Oxford Economics. Assessing the Impact of Tax-Free Shopping in the UK. Report for the Association of International Retail. Oxford, 2022.

⁶Aguilar A., Frost J., Guerra R., Kamin S., Tombini A. Digital Payments, Informality and Economic Growth // BIS Working Papers. Basel, Bank for International Settlements, 2024. No. 1196.



mablagʻ taqsimlash chorasi emas, balki oʻlchanadigan iqtisodiy natija beradigan investitsiya sifatida koʻrishni taqozo etadi. Ragʻbatning bunday roli zamonaviy turizm iqtisodiyoti va davlat siyosati nazariyasida oʻz asosiga ega, chunki iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti sharhlarida mayda va oʻrta turizm subyektlarini maqsadli qoʻllab-quvvatlash hamda sohani raqamlashtirish koʻplab davlatlarda ustuvor yoʻnalish sifatida qayd etiladi⁷, ragʻbatning taʼsir mexanizmi esa turist yoki provayder duch keladigan samarali xarajatni oʻzgartirishga asoslanib, turistga beriladigan qaytarim uning sayohat xarajatini, provayderga beriladigan yordam esa uning faoliyat xarajatini kamaytiradi. Turistik talabning narx va xarajat oʻzgarishlariga sezgir boʻlishi xalqaro talab egiluvchanligi meta-tahlillarida empirik tarzda tasdiqlangani⁸ ragʻbatning koʻzlangan natijaga olib kelishini asoslaydi, biroq ragʻbatning oqlanishi uning yalpi hajmi bilan emas, balki bir soʻm evaziga qaytaradigan qiymati bilan oʻlchanishi lozim, zero davlat siyosati choralarini bir birlik byudjet xarajatiga toʻgʻri keladigan sof naf mezoni boʻyicha qiyoslab baholash zamonaviy davlat iqtisodiyotida keng eʼtirof etilgan yondashuv hisoblanadi⁹. Shu mantiqdan kelib chiqib, metodikada har qanday ragʻbat oʻzi keltirgan qoʻshimcha turist, qoʻshimcha sarf va shu sarf hisobidan tushadigan qoʻshimcha soliq daromadi orqali baholanadi.

Mustaqil turistlar oqimini oshirishga qaratilgan toʻrt asosiy toʻgʻridan-toʻgʻri ragʻbat instrumenti ajratilib, ular taʼsir yoʻnalishiga koʻra ikki guruhga boʻlinadi, yaʼni turistga yoʻnaltirilgan guruhga qoʻshilgan qiymat soligʻini qaytarish va keshbek kirib, ular bevosita turist xarajatini kamaytirib talab va sarfni ragʻbatlantiradi, provayderga yoʻnaltirilgan guruhga esa subsidiya va soliq imtiyozini kirib, ular mustaqil turistga xizmat qiladigan mayda subyektga moliyaviy qoʻllab-quvvatlash berib uning rasmiy maydonga chiqishidan oladigan sof nafini oshiradi va taklif bazasini kengaytiradi. Metodika turistlarni iqtisodiy xususiyatiga koʻra uch shartli segmentga ajratadi, jumladan A segment qoʻshni va Mustaqil Davlatlar

⁷OECD. Koʻrsatilgan asar.

⁸Peng B., Song H., Crouch G.I., Witt S.F. Koʻrsatilgan asar.

⁹Hendren N., Sprung-Keyser B. Koʻrsatilgan asar.



Hamdo'stligi mamlakatlaridan keladigan, hajmi katta, biroq turist boshiga sarfi past va asosan naqd pulga tayanadigan oqimni, B segment turist boshiga sarfi yuqori, ko'proq xarid qiladigan uzoq xorij oqimini, C segment esa tez o'sayotgan, ammo hajmi kichik niche oqim va taklif bazasi zaif hududlarni bildiradi, har bir segmentning talab javobi va sarf tuzilmasi turlicha bo'lgani uchun instrumentlar segmentlarga moslab biriktiriladi.

Byudjet samaradorligini o'lchash uchun uchta o'zaro bog'langan ko'rsatkich va ularga mos formulalar taklif etilib, birinchi ko'rsatkich turist bo'yicha samaradorlik bo'lib, u rag'bat hisobiga qo'shilgan mustaqil turistlar sonining shu rag'batga sarflangan byudjetga nisbati sifatida aniqlanadi.

$$E_n = \Delta N / B \quad (1)$$

Bu yerda E_n turist bo'yicha samaradorlikni, ΔN rag'bat ta'sirida qo'shimcha jalb etilgan mustaqil turistlar sonini, B esa shu rag'batga ajratilgan byudjet xarajatini bildiradi, ko'rsatkich bir so'm byudjet evaziga qancha qo'shimcha turist jalb etilganini ifodalab, ayniqsa hajmi katta, biroq turist boshiga sarfi past oqim uchun ahamiyatlidir. Turistlar sonining o'zi mamlakatga keladigan qiymatni to'liq ifodalamagani uchun ikkinchi ko'rsatkich sarf bo'yicha samaradorlik bo'lib, u rag'bat hisobiga qo'shilgan turistik sarfning byudjetga nisbati sifatida hisoblanadi.

$$E_s = \Delta S / B \quad (2)$$

Bu yerda E_s sarf bo'yicha samaradorlikni, ΔS esa rag'bat hisobiga qo'shilgan turistik sarfni bildiradi, u qo'shilgan turistlar sonini shu toifaning bitta turistiga to'g'ri keladigan o'rtacha sarfga ko'paytirish orqali topiladi, mamlakatda qoladigan haqiqiy qiymatni o'lchash uchun esa qo'shilgan sarfdan chetga sizib chiqqan qism chiqarib tashlanadi, ya'ni sof qo'shilgan sarf $\Delta N \times \text{o'rtacha sarf} \times (1 - l)$ ifodasi orqali aniqlanadi, bunda l sizib chiqish ulushini bildiradi. Uchinchi ko'rsatkich rag'batning byudjetga moliyaviy jihatdan oqlanishini baholaydi, zero qo'shilgan sarf o'z navbatida byudjetga qo'shimcha soliq daromadi keltiradi, shu bois naf va xarajat nisbati hamda sof byudjet samarasi quyidagicha aniqlanadi.

$$BCR = \Delta T / B, \quad NBS = \Delta T - B \quad (3)$$



Bu yerda BCR naf va xarajat nisbatini, NBS sof byudjet samarasini, ΔT esa qo'shilgan sarf hisobiga byudjetga tushadigan qo'shimcha soliq daromadini bildiradi, u qo'shilgan sarfni samarali soliq stavkasi t ga va rasmiylashish hamda qamrov ulushi ρ ga ko'paytirish orqali, ya'ni $\Delta T = \Delta S \times t \times \rho$ tarzida hisoblanadi, chunki sarfning faqat rasmiy kanaldan o'tgan qismigina soliqqa tortiladi. Agar BCR birdan katta bo'lsa, rag'bat o'zi keltirgan soliq daromadi hisobiga byudjetdagi xarajatini to'liq qoplaydi va ustiga sof ijobiy samara beradi. Metodikaning kirish qiymatlari turli ishonchlilik darajasiga ega bo'lib, samarali soliq stavkasi va rasmiylashish ulushi rasmiy statistik ma'lumotga asoslangan qiymatlar bo'lsa, qo'shilgan turistlar soni ΔN rag'bat joriy etilishidan oldin egiluvchanlik koeffitsiyentlari va xalqaro tajribadagi o'xshash dasturlar natijalari asosida baholangani uchun asosiy noaniqlik manbai hisoblanadi, shu sababli samaradorlik baholarining barqarorligini ta'minlash maqsadida ΔN talab javobining quyi, bazaviy va yuqori darajalarida tekshiriladi hamda bunday sezgirlik tahlili qaysi xulosalar talab javobi haqidagi taxminga bog'liq emasligini ko'rsatib, metodikaning ishonchliligini oshiradi.

Natijalar

Instrumentlar va ularning maqsadli tomoni aniqlangach, har bir instrument mos turist toifasiga yo'naltiriladi, zero turli toifadagi turistlar rag'batga turlicha javob beradi. Qo'shni va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlaridan keladigan A segment uchun keshbek eng mos instrument hisoblanadi, chunki ulkan oqim uning rasmiylashtirish samarasini ko'paytiradi va naqd sarfni o'lchanadigan kanalga tortadi, qo'shilgan qiymat solig'ini qaytarish esa bu yerda kuchsiz, zero xaridlar mayda bo'lib ko'pincha qaytarish chegarasiga yetmaydi. Turist boshiga sarfi yuqori B segment uchun esa qo'shilgan qiymat solig'ini qaytarish eng samarali instrument bo'lib, ko'p sarflaydigan turistlar aynan shunday rag'batga eng kuchli javob beradi¹⁰, tez o'sayotgan, ammo hajmi kichik C segment va taklif bazasi zaif hududlar uchun esa provayderga yo'naltirilgan subsidiya hamda soliq imtiyozi ustuvor bo'lib, ular

¹⁰Oxford Economics. Ko'rsatilgan asar.



talab shakllanishidan oldin xizmat bazasini tayyorlaydi. Instrumentlarning maqsadli tuzilmasi 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval


Rag'bat instrumentlari va ularning maqsadli tuzilmasi

Instrument	Maqsadli tomon	Ta'sir kanali	Kutilayotgan samara	Byudjet xarajati turi
QQS qaytarish	Turist	Xaridning samarali narxini pasaytirish	Sarfni oshirish, yuqori sarfli turistni jalb etish	Voz kechilgan soliq
Keshbek	Turist	Raqamli to'lovga qisman qaytarim	Sarfni oshirish va uni rasmiy kanalga tortish	To'g'ridan-to'g'ri byudjet to'lovi
Subsidiya	Provayder	Rasmiy provayderga moliyaviy qo'llab-quvvatlash	Sifatni oshirish, rasmiylashishni rag'batlantirish	To'g'ridan-to'g'ri byudjet xarajati
Soliq imtiyozi	Provayder	Soliq va hisobot yukini kamaytirish	Rasmiy maydonga kirishni jozibali qilish	Voz kechilgan soliq daromadi

Manba. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Instrumentlarning maqsadli tomon va turist segmentlari bilan bog'lanishi hamda ularning bir so'm byudjet mezonida o'lchanishi 1-rasmda sxema ko'rinishida keltirilgan bo'lib, undan ko'rinadiki keshbek asosan A segmentga, qo'shilgan qiymat solig'ini qaytarish B segmentga, provayderga yo'naltirilgan rag'batlar esa barcha segmentlarga, ayniqsa C segmentga yo'naltiriladi, bu esa rag'batlarning bir xilda

emas, balki har bir toifaning iqtisodiy xususiyatiga moslab taqsimlanishini ko'rsatadi.



1-rasm. Rag'bat instrumentlarining maqsadli tomon va turist segmentlari bilan bog'lanish sxemasi

Manba. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Metodikaning amaliy qo'llanilishini bitta instrument va bitta toifa misolida ko'rsatish mumkin, ya'ni A segment uchun raqamli to'lovga asoslangan keshbek dasturiga shartli ravishda 5 milliard so'm byudjet ajratiladi va talab javobi baholari bu rag'bat taxminan 25 ming qo'shimcha mustaqil turistni jalb etishini ko'rsatadi deb olaylik, bunda turist bo'yicha samaradorlik E_n teng 25 ming bo'linadi 5 milliard bo'lib, bir million so'm byudjet o'rtacha 5 turist jalb etishini bildiradi. Agar bitta turistiga to'g'ri keladigan o'rtacha sarf shartli ravishda 4 million so'mni tashkil etsa, qo'shilgan sarf ΔS teng 100 milliard so'm, sarf bo'yicha samaradorlik esa E_s teng 20 bo'lib, bir so'm byudjet 20 so'm qo'shimcha sarf keltiradi, samarali soliq stavkasi 12 foiz va rasmiylashish ulushi 60 foiz deb olinganda esa qo'shilgan soliq daromadi ΔT teng 100 milliard ko'paytiriladi 0,12 ko'paytiriladi 0,6 amali orqali 7,2 milliard so'mni tashkil etadi. Bunda naf va xarajat nisbati BCR teng 7,2 bo'linadi 5 amali bilan 1,44 bo'lib, birdan katta, demak rag'bat o'z xarajatini soliq tushumi hisobiga



qoplaydi, sof byudjet samarasi esa NBS teng 7,2 ayiriladi 5 amali bilan 2,2 milliard so‘m ijobiy qiymatni beradi, keltirilgan raqamlar shartli bo‘lib faqat hisob-kitob tartibini ko‘rsatish maqsadida berilgan. Uchala ko‘rsatkich har bir instrument va toifa juftligi uchun hisoblanganda ularning kuchli tomonlari turli segmentlarga to‘g‘ri kelishi yaqqol namoyon bo‘ladi va bu 2-jadvalda umumlashtirilgan.

2-jadval

Rag‘bat instrumentlarining segment bo‘yicha samaradorligi va ustunligi

Instrument va toifa	E_n (turist, 1 mln so‘mga)	E_s (so‘m, 1 so‘mga)	BCR	Asosiy ustunlik
Keshbek (A segment)	5	20	1,44	Hajm va rasmiylashtirish
QQS qaytarish (B segment)	2	28	2,35	Sarf va byudjet qoplamasi
Subsidiya va soliq imtiyozi (C segment)	1,5	12	0,72	Xizmat bazasini yaratish

Manba. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan. Qiymatlar shartli (illyustrativ) bo‘lib, metodikaning hisoblanuvchanligini ko‘rsatish uchun keltirilgan.

2-jadvaldan ko‘rinadiki, raqamli to‘lovga asoslangan keshbek hajmi katta toifa uchun bir so‘m byudjet evaziga eng ko‘p turist jalb etadi va naqd sarfni rasmiy kanalga tortib qo‘shimcha soliq bazasini kengaytiradi, qo‘shilgan qiymat solig‘ini qaytarish esa turist boshiga sarfi yuqori toifa uchun bir so‘m evaziga eng ko‘p qo‘shimcha sarf va eng yuqori byudjet qoplamasini beradi, provayderga yo‘naltirilgan subsidiya va soliq imtiyozi qisqa muddatda samaradorlik bo‘yicha quyiroq tursa-da, ular talab endigina shakllanayotgan toifada xizmat bazasini tayyorlab kelgusidagi rag‘batlar ta’sir qiladigan zaminni yaratadi, demak hech bir instrument barcha mezon bo‘yicha bir vaqtning o‘zida ustun emas, ularning kuchli tomonlari turli toifalarga mos keladi.



Byudjet samaradorligi har bir instrument uchun aniqlangach, yakuniy masala cheklangan byudjetni instrumentlar va turist toifalari o'rtasida qanday taqsimlashdan iborat bo'lib, u mohiyatan optimallashtirish masalasi hisoblanadi, unda maqsad cheklangan byudjet sharoitida qo'shilgan sof sarfning umumiy yig'indisini eng katta darajaga yetkazishdir va masala rasmiy ko'rinishda $\max \sum \Delta S_i$ shaklida, $\sum B_i \leq B$ va $B_i \geq 0$ shartlari ostida ifodalanadi, bunda ΔS_i har bir instrument va toifa juftligi keltiradigan qo'shimcha sof sarfni, B_i shu juftlikka ajratilgan byudjetni, B esa umumiy byudjet chegarasini bildiradi. Masalaning yechimi marginal samaradorlik tamoyiliga asoslanadi, ya'ni byudjetning har bir keyingi qismi avvalo bir so'm evaziga eng ko'p natija beradigan yo'nalishga yo'naltiriladi, mablag' shu yo'nalishga ajratilgan sari uning qo'shimcha birlikdan keladigan natijasi asta-sekin kamayadi, shu sababli maqbul taqsimotga barcha yo'naltirilgan yo'nalishlarning marginal samaradorligi tenglashganda yoki umumiy byudjet tugaganda erishiladi, kamayuvchi qo'shimcha samara tufayli maqbul yechim butun byudjetni bitta yo'nalishga to'plash emas, balki uni bir necha yo'nalish o'rtasida muvozanatli taqsimlashdan iborat bo'ladi¹¹.

Amalda bu byudjetning katta qismini hajmi katta toifada keshbekka, sezilarli qismini yuqori sarfli toifada qo'shilgan qiymat solig'ini qaytarishga, qolgan qismini esa istiqbolli toifada xizmat bazasini tayyorlaydigan provayder rag'batlariga ajratishni anglatadi, taqsimot esa tasodifiy yoki teng emas, balki bir so'm byudjet evaziga o'lchangan samaradorlik bo'yicha reytinglab amalga oshiriladi. Sezgirlik tahlili shuni ko'rsatadiki, talab javobining quyi va yuqori shartli ssenariylarida byudjet ulushlari o'zgarsa ham, ikki yo'nalish, ya'ni hajmi katta segmentda keshbekning va yuqori sarfli segmentda qo'shilgan qiymat solig'ini qaytarishning ustunligi barcha ssenariylarda saqlanib qoladi, demak bu ikki yo'nalish maqbul taqsimotning barqaror o'zagini tashkil etadi va shartli baholardagi noaniqlikka qaramay amaliy tavsiya sifatida ishonchli hisoblanadi.

¹¹Hendren N., Sprung-Keyser B. Ko'rsatilgan asar.



Muhokama

Taklif etilgan metodikaning yangiligi uning standart xarajat-naf tahlilidan farqli o'laroq mustaqil turizm xususiyatlariga moslashtirilganligida namoyon bo'ladi, zero an'anaviy tahlil odatda bitta loyiha yoki choraning umumiy nafi va xarajatini qiyoslash bilan cheklansa, bu yerda to'rtta aniq rag'bat instrumenti har bir turist toifasi bo'yicha farqlangan talab javobi va sarfning rasmiy kanalda qamrab olinish darajasi orqali yagona bir so'm byudjet mezonida o'lchanadi, shu tariqa byudjet samaradorligi bir vaqtning o'zida ham talabni rag'batlantirish, ham norasmiy sarfni rasmiy iqtisodiyotga tortish nuqtai nazaridan baholanadi. Metodikaning ikkinchi muhim jihati uning ikkita maqsadni birlashtirishida bo'lib, to'g'ri loyihalangan rag'bat nafaqat talabni oshiradi, balki shu talab keltirgan sarfni rasmiy iqtisodiyotga olib kiradi, aynan shu sababli raqamli to'lovga bog'langan keshbek oddiy narx chegirmasidan farq qiladi, chunki har bir raqamli to'lov o'z ma'lumot izini qoldirib mayda subyektni rasmiy hisob doirasiga kiritadi, bu esa raqamli to'lovning norasmiy faoliyatni rasmiy maydonga tortishi va soliq bazasini kengaytirishi haqidagi empirik dalillarga mos keladi¹², natijada formalizatsiya alohida chora sifatida emas, balki rag'bat mexanizmining tarkibiy elementi sifatida qaraladi.

Taklif etilgan metodika tadqiqotning oldingi bosqichlarida ishlab chiqilgan turist segmentatsiyasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, segmentatsiya tahlilida har bir toifa uchun aniqlangan o'rtacha sarf, sizib chiqish ulushi va talab javobi kabi ko'rsatkichlar byudjet samaradorligini baholashning bevosita kirish qiymatlari sifatida ishlatiladi, demak mazkur metodika alohida vosita emas, balki mustaqil turistlar oqimini oshirishning yaxlit tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining tarkibiy bo'g'inidir, chunki u bir tomondan oldingi segmentatsiya va hudud baholash natijalaridan oziqlanadi, ikkinchi tomondan keyingi bosqichdagi oqim ulushini prognozlash va rag'bat dasturini amaliy joriy etish uchun zarur miqdoriy asosni tayyorlaydi. Olingan natijalarning amaliy ahamiyati shundaki, ular cheklangan

¹²Aguilar A. va boshq. Ko'rsatilgan asar.



davlat mablag'ini intuitiv emas, balki o'lchanadigan samaradorlik mezonida taqsimlash imkonini beradi, davlat boshqaruviga eng ko'p qiymat yaratadigan, biroq hozircha rag'bat tizimidan chetda qolayotgan mustaqil turistlar oqimini moliyaviy qo'llab-quvvatlash doirasiga kiritish yo'lini ko'rsatadi va metodikaning barcha kirish qiymatlari hujjatlashtirilgan manbalarga tayangani uchun hisob-kitob shaffof hamda boshqa tadqiqotchi tomonidan takrorlanadigan bo'ladi.

Tadqiqotning cheklovlari ham mavjud bo'lib, maqolada keltirilgan sonli qiymatlar shartli bo'lib metodikaning ishlash mantig'ini namoyish etish uchun xizmat qiladi, yangilikning mohiyati esa aynan baholash metodikasining o'zida, ya'ni uchta samaradorlik ko'rsatkichi va maqbul taqsimot mezonida bo'lib, aniq sonli qiymatlar real rag'bat dasturi joriy etilganda yig'iladigan ma'lumotlar asosida kalibrlanadi, shu bois real raqamli baholash amaliy joriy etish bosqichining vazifasi sifatida belgilanadi, bundan tashqari qo'shilgan turistlar soni rag'bat joriy etilishidan oldin baholangani uchun asosiy noaniqlik manbai bo'lib qoladi, biroq sezgirlik tahlili maqbul taqsimotning barqaror o'zagini ajratib berib bu cheklovning ta'sirini kamaytiradi.

Xulosa

Tadqiqotda mustaqil turistlarga qaratilgan to'g'ridan-to'g'ri rag'bat instrumentlarining byudjet samaradorligini baholash metodikasi taklif etilib asoslandi, u qo'shilgan qiymat solig'ini qaytarish, keshbek, subsidiya hamda soliq imtiyozi instrumentlarini turist bo'yicha samaradorlik, sarf bo'yicha samaradorlik va naf hamda xarajat nisbati ko'rsatkichlari orqali yagona bir so'm byudjet mezonida o'lchaydi, bu uchta ko'rsatkich esa har bir instrumentni bir xil tilda qiyoslash imkonini berib, qaysi rag'bat qaysi turist toifasi uchun iqtisodiy jihatdan ustun ekanini aniqlaydi. Metodikaning amaliy qiymati cheklangan davlat mablag'ini marginal samaradorlik tamoyiliga tayanib taqsimlash imkonini berishida bo'lib, shartli baholar asosida olingan natijalar hajmi katta segmentda keshbek, yuqori sarfli segmentda esa qo'shilgan qiymat solig'ini qaytarish maqbul taqsimotning barqaror o'zagini tashkil etishini ko'rsatdi, shu bilan taklif etilgan yondashuv mustaqil turizm siyosatida rag'batni shunchaki mablag' taqsimlash chorasi emas, balki o'lchanadigan



iqtisodiy natija va formalizatsiya samarasini birgalikda beradigan investitsiya sifatida ko‘rishga asos yaratadi, kelgusi tadqiqotlarda esa metodikani real rag‘bat dasturi ma’lumotlari asosida kalibrlash va uning amaliy natijalarini empirik baholash istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.